

*Mavzu:*  
**Kommunikativ  
malakalar va  
ta'sir ko'rsatish.**



**P.f.n., dotsent  
Iroda Rejametova Ikramshikovna**

# REJA:

O'qituvchining kommunikativ malakasi.

O'qituvchining kommunikativ ta'sir etish usullari.

O'qituvchining kommunikativ madaniyati.

O'qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish yo'llari.



## *Adabiyotlar:*



- 1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.*
- 2. Azizxўjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maҳorat. – Toshkent: Nizomiy nomidaги TДПУ, 2006.*
- 3. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darслиk. N.T. Omonov, N.X. Xojjaev, S.A. Madiyarova, E.I. Eshkulov. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009.*
- 4. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2011.*
- 5. Hikmatnoma. //To'plovchi N.Eshonqulov. Toshkent: Cho'lpon, 1992.*

## *Blits-so'rov savollari*

**1. Kommunikatsiya deganda  
nimani tushunasiz?**



*2. Kommunikativ qobiliyat tushunchasining  
ko'nikma va malakalar bilan qanday  
aloqadorligi mavjud?*

**3. So'zsiz insonga ta'sir etish mumkinmi?**

*4. Siz o'quvchingizga ta'sir ko'rsatmoqchi  
bo'lsangiz qanday usullardan foydalangan  
bo'lar edingiz?*

# *Kommunikativ qobiliyat –*

O'qituvchining kommunikativ malakasi.

**Bu pedagogik o'zaro  
harakat sohasida  
maxsus ko'rinishga  
ega bo'lgan muloqot  
qobiliyatidir.**



**Psixologik adabiyotlarda  
kommunikativ qobiliyatlarning bir  
qancha turlari ajratib ko'rsatiladi:**

**1.**

**insonning insonni  
tushuna olishi**

*(insonni shaxs sifatida,  
uning alohida  
jihatlarini, motiv va  
ehtiyojlarini baholash,  
tashqi xulq-atvorini  
ichki olami bilan  
bog'liqlikda ko'rib  
chiqish, yuz, qo'l, gavda  
harakatlarini "o'qish"  
ko'nikmasi)*

**2.**

**insonni o'z-o'zini  
anglay olishi**

*(o'z bilimi, qobiliyati,  
o'z xarakteri va  
boshqa qirralarini  
baholash, inson  
boshqalar tomonidan  
qay tarzda qabul  
qilinishi va  
atrofdagilar ko'zi bilan  
baholash);*

**3.**

**muloqot vaziyatini  
to'g'ri baholay olish  
ko'nikmasi**

*(mavjud holatni  
kuzatish, uning  
namoyon bo'lish  
belgilari haqida  
ko'proq axborotlarni  
ajarata olish, ularga  
e'tiborni qaratish,  
yuzaga kelayotgan  
vaziyatning ijtimoiy va  
psixologik mohiyatini  
to'g'ri idrok etish va  
baholash).*

**O.O.Kashenkoning**  
fikricha,....  
ning tarkibiy qismi  
sifatida aks ettirilsa  
ham mustaqil  
kategoriya sifatida  
ishlatilmaydi

**o'z-o'zini  
bilish**

**o'z-o'zini  
boshqarish,**

**o'z-o'zini  
baholash**

**o'z-o'zini tahlil  
etish falsafa,**

**Psixologiyada  
o'z-o'zini  
anglash,**

Biroq  
**o'z-o'zini  
anglashning  
shakllanishi**  
va  
**rivojlanishi**  
**o'z-o'zini  
tahlil etish**  
asosida  
amalga  
oshishini  
esda tutish  
zarur.



***O'z-o'zini tahlil etish usullari quyidagilarga e'tibor qaratishni talab etadi:***

- 1) ijtimoiylikka yo'naltirilgan o'zaro harakat vaziyatlaridan shaxsiy xulq-atvor, tarbiyalanuvchi shaxsi, uning o'ziga xosliklari, qadriyatlar tizimi kabilarni ob'ekt sifatida ko'rib chiqish;***
- 2) o'z xulq-atvori, shaxsiy fazilatlarini tahlil etish mezonlari tizimini aniqlash***
- 3) noma'lumdan ma'lumni ajratib olish;***
- 4) qarama-qarshiliklarni aniqlash.***





Xulosa qilib aytganda,  
*o'z-o'zini tahlil etish*

va

*o'z-o'zini anglash* pedagogda o'zi va  
boshqalarning u haqidagi tasavvuri  
sifatidagi kasbiy  
***“Men qiyofasi”*** ning shakllanishiga  
olib keladi.

*O'quvchilarda soxta ishonch hosil bo'lishining sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin:*

**1. Faqat a'lo bahoga o'qish**

**2. O'zini o'ta itoatkorona tutish**

**3. O'qituvchini aldash**

**4. Maktab ichki tartib-qoidasini buzish**

**5. Haddan tashqari ko'p mehnat qilish**

*O'quvchilarda soxta ishonch hosil bo'lishining sabablari quyidagilar bo'lishi  
mumkin:*

**□faqat a'lo bahoga o'qish** - bu bilim olishda  
ko'r-ko'ronalik, quruq yodlashga olib boradi;

**□o'zini o'ta itoatkorona tutish** - bu o'quvchi  
faoliyatini nihoyatda past bo'lishiga olib keladi.  
Me'yordagi o'quvchi o'qituvchidan ba'zan tanbeh  
olib turishi kerak;

**□o'qituvchini aldash** - bu o'quvchini o'ta aqli va  
topqirligidan dalolat beradi;

*O'quvchilarda soxta ishonch hosil bo'lishining sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin:*

**□ maktab ichki tartib-qoidasini buzish** faqat kuchli xarakterga ega bo'lgan o'quvchigagina xos bo'lib, u o'qituvchi tomonidan tanqid qilib turiladi;

**□ haddan tashqari ko'p mehnat** qilish - bu kerak bo'lmagan tirishqoqlikdir.



**Soxta ishonchni bartaraf qilish uchun  
o'qituvchi quyidagi uch yo'nalishda ish  
olib borishi kerak:**

**Sinf jamoasida  
sog'lom ijtimoiy  
fikrni shakllantirish.**

**Muhim ahamiyat  
kasb etuvchi shaxsiy  
hayotiy tajriba  
yaratish.**

**Soxta ishonchni  
asosiy tarzda inkor  
qilish.**

*usullari mavjud:*



*O'quvchini o'zini boshqalar bilan taqqoslashga undash. Uning fikriga qarama-qarshi fikrda bo'lgan kishi bilan yaqindan tanishish (masalan, bola o'qishni xohlamaydi, lekin uning tanish o'rtog'ini ko'p o'qiydi va biladi, ammo o'zining "quruq yodlovchi" yoki "o'ta bilimdon" qilib ko'rsatmaydi);*

*Noto'g'ri qarashlar va ishonch oqibatida nimalarga olib kelishini ko'rsatish (masalan, ana shunday xislatlarga ega bo'lib, o'z hayotini barbod qilgan, o'z erki, g'ururi va vijdonini yo'qotgan kishilar haqida so'zlab berish. Buning uchun hayotiy misollar, badiiy asarlar, kinofilmlar va boshqalardan foydalanish mumkin);*

*Soxta ishonchni yoqlab, himoya qiluvchi o'quvchi fikrini mantiqiy rivojlantirib, uni hayratga soluvchi holatga yetkazish. Masalan, barcha o'quvchilar o'qituvchilarni aldash, ichki tartib-qoidalarga rioya qilmaslik nimalarga olib borishi mumkin).*



O'qituvchi tarbiyachi sifatida  
tarbiyalanuvchi o'quvchilarni o'zi uchun  
hamisha tarbiya obyektini deb hisoblashi  
kerak.

Biroq tarbiyalanuvchi o'qituvchi-tarbiyachi  
bilan erkin va ongli munosabatda bo'lishga  
erishsagina, tarbiyaviy munosabatlar  
samarali xarakter kasb etadi.



Tarbiyaviy faoliyatning kommunikativ munosabatlar jarayonida o‘ziga xos qator **qoidalari** ham mavjud bo‘lib, o‘qituvchi o‘quvchilarga pedagogik ta‘sir ko‘rsatishda **ushbu qoidalarni mukammal bilishi** **lozim**



## O'QUVCHILARGA PEDAGOGIK TA'SIR KO'RSATISHDA O'QITUVCHI AMAL QILADIGAN QOIDALAR

- tarbiyaning aniq bir maqsadga qaratilganligi
- tarbiyaning hayotiy faoliyat bilan bog'liq hodisa ekanligi
- shaxsni jamoada tarbiyalanishi da o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish
- tarbiyalanuvchi shaxsga nisbatan talabchan bo'lish va uning shaxsini hurmat qilish
- tarbiyalanuvchining yosh va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi va muntazam olib borilishini ta'minlash

*R:3. O'qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish yo'llari*

## **Pedagogik munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun o'qituvchi:**

- *o'quvchilar bilan bo'lajak munosabatni modellashtira olishi;*
- **munosabatda bo'ladigan sinf jamoasi xususiyatlarini oldindan bilishi;**
- *bevosita samimiy va hamjihatlikka asoslangan munosabat o'rnatish;*
- **munosabatda ustunlikka ega bo'lib, uni demokratik talablar asosida oqilona boshqarish;**
- *munosabatning ijobiy va salbiy jihatlarini uzluksiz tahlil etib borishi lozim.*





*O‘qituvchi kasbiy mahoratida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan insoniy fazilat hamda xushmuomalalikni o‘zida shakllantirishi uchun muntazam faoliyat olib borishi zarur.*

*O‘qituvchi pedagogik faoliyatiga oid shaxsiy o‘z-o‘zini tarbiyalashning o‘zaro fikr almashish va aloqadorlikka doir quyidagi tizimlarini tavsiya etish mumkin.*

- 1. Kasbiy faoliyat jihatidan o‘z-o‘zini anglashni (muomalada o‘zaro fikr almashishga doir sifatlarni, ijobiy va zaif tomonlarini aniqlashni) amalga oshirish va shu asosda o‘zaro fikr almashish asosida o‘z-o‘zini tarbiyalash dasturini ishlab chiqish.*
- 2. O‘z kasbiy faoliyatiga quyidagi yo‘nalishlarda baho berish maqsadga muvofiq: kishilar bilan bo‘lgan muomaladan so‘ng olingan taassurotlarni tahlil qilish, o‘quvchilar bilan muomalaning so‘nggi holatlarini o‘rganib, muomala haqida o‘zining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish, muomaladagi imkoniyatlaringizni atrofdagilar (o‘qituvchilar jamoasi, ota-onalar, o‘quvchilar) qanday baholashi haqidagi tasavvurlarga ega bo‘lish.*
- 3. O‘zida insonparvarlikning asosiy xususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan o‘z-o‘ziga ta’sir o‘tkazuvchi “autogen” mashqlar asosida ishlash.*

4. *O‘quvchilar va ota-onalar bilan turli jamoat ishlarini olib borish, bundan o‘zaro fikr almashish faoliyatida ko‘nikma va malakalar (ma‘ruzalar, suhbatlar, kamolot yoshlar uyushmalari) hosil bo‘ladi.*
5. *So‘z bilan og‘zaki ta‘sir o‘tkazishda salbiy kayfiyatlarni yengish tajribasini shakllantiradigan va xushmuomalalikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratish.*
6. *Xushmuomalalikka milliy an‘ana va urf-odatlarimiz, o‘zbekona muomala madaniyati, milliy ma‘naviyatimiz nuqtai nazaridan yondashish.*
7. *O‘z ona tilida puxta, lo‘nda va jarangdor so‘zlar tuza olish va uni nutqiy mahorat bilan ifodalash ta‘lim muassasalarida o‘rganilayotgan har bir fan o‘qituvchisi uchun eng zarur kommunikativ qobiliyatlardan biridir.*

O‘qituvchi kasbiy faoliyati davomida nutqidagi  
so‘z qudratini takomillashtirib boradi.



U o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali so‘z boyligini go‘zal, ravon, ifodali, ta’sirchan bo‘lishiga intiladi.

*Zero, go‘zal va ta’sirchan so‘zlay bilish ham san’at.*

Bu san’atdan bebahra bo‘lgan o‘qituvchining  
kasbiy mahorati shakllanmaydi.



Qaysi fanni o‘qitishdan qat’iy nazar, o‘qituvchining asosiy quroli so‘z boyligidir, u so‘z qudrati asosida kommunikativ qobiliyatini namoyish etadi.

# ***E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!***

